

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

HASANXOJA NISORIYNING “MUZAKKIRI AHBAB” VA MUTRIBIY SAMARQANDIYNING “TAZKIRAT USH -SHUARO” TAZKIRALARIDA BADIY TAFAKKUR TALQINI

Axmedova Kamola

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Email: 1kamola.axmedova1993@gmail.com

Tel: +998 97 877 75 34

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVI asr o'zbek adabiyotida badiiy va poetik tafakkurning yangilanish jarayonlari tazkiranavislik an'anasini misolida tahlil qilinadi. Mutribiy Samarqandiy va Hasanxoja Nisoriy asarlari asosida shoir obrazining murakkab va yaxlit ifodalanishi, estetik mezonlarning aniqlashuvi, tanqidiy yondashuvning kuchayishi hamda poetik tafakkurda psixologik unsurlarning yuzaga kelishi tadqiq etiladi. Shuningdek, tazkiralarning estetik va ijtimoiy tafakkurni uyg'unlashtirishi, shoirlarning o'z davri ijtimoiy jarayonlaridagi faol ishtiroki yoritiladi.

Kalit so'zlar: tazkira, badiiy tafakkur, poetik yangilanish, Mutribiy Samarqandiy, Hasanxoja Nisoriy, shoir obrazi, estetik mezonlar.

THE EXPLANATION OF ARTISTIC THOUGHT IN THE TAZKIRA OF HASANKHODJA NISARIY “MUZAKKIRI AHBAB” AND MUTRIBIY SAMARQANDIY “TAZKIRAT USH -SHUARO”

Akhmedova Kamola

Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi

Annotation. This article analyzes the processes of renewal of artistic and poetic thinking in Uzbek literature of the 16th century using the example of the tazkiranavislik tradition. Based on the works of Mutribiy Samarqandiy and Hasankhodja Nisariy, the complex and holistic expression of the poet's image, the definition of aesthetic criteria, the strengthening of the critical approach, and the emergence of psychological elements in poetic thinking are studied. It also highlights the integration of aesthetic and social thinking in tazkiras, and the active participation of poets in the social processes of their time.

Keywords: tazkiras, artistic thinking, poetic renewal, Mutribiy Samarqandiy, Hasankhodja Nisariy, the image of the poet, aesthetic criteria.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i16/n11>

XVI asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda adabiyotning shakl va mazmun jihatidan sezilarli darajada rivojlanganini kuzatish mumkin. Mazkur davrda tazkiranavislik shoirlarning hayoti va faoliyatini oddiy tarzda qayd etish bilan cheklanib qolmay, ularning ijodiy-estetik qarashlarini o'rganish, poetik mezonlarini aniqlash hamda davrning intellektual jarayonlarini anglash uchun muhim adabiy manbaga aylandi. Mutribiy Samarqandiy va Hasanxoja Nisoriy tomonidan yaratilgan tazkiralarda adabiy tafakkurda yuz berayotgan o'zgarish jarayonlarini yorqin aks ettiradi. Ularning asarlari nafaqat tarixiy va madaniy xotirani saqlab qoladi, balki axloqiy, ijtimoiy va badiiy jihatlar uyg'unlashgan yangi poetik dunyoqarashning shakllanishi haqida ham chuqur tasavvur beradi. Mazkur mualliflar

shoirlarni faqat estetik nuqtayi nazardan baholash bilan cheklanmay, ularning shaxsiyati va ijodiy hissasini axloqiy hamda ijtimoiy mezonlar asosida ham tahlil qiladilar. Shu jihatdan ular mintaqadagi adabiy-tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar.

Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asari o'zining tanqidiy ruhi, realistik yo'nalishi va shoirlarni xolisona baholashga intilishi bilan ajralib turadi. U shoir ijodiga faqat estetik mezonlar asosida emas, balki ijtimoiy va axloqiy nuqtayi nazardan ham yondashadi. Bu esa shoir obrazini har tomonlama tasvirlash imkonini beradi. Mutribiy shoirlarni san'atkor sifatida tasvirlash bilan birga, ularni ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan shaxslar sifatida ham namoyon etadi. Mazkur yondashuv shaxsiyat va ijod uyg'unligiga asoslangan yangi poetik ongning shakllanishiga zamin yaratdi. Mutribiy ko'plab shoirlarni nafaqat badiiyat ustalari, balki o'z davrining muhim masalalariga munosabat bildirgan, yuksak ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usiga ega ziyolilar sifatida ham tasvirlaydi. Bundan tashqari, shoirlarning hayoti va ijodiy yo'li orqali ularning shaxs sifatida shakllanishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini yoritadi. Shoirlarning ijodiy motivlari va poetik individualligi adabiy yangilanish va ijodiy izlanishlardagi kengroq o'zgarishlarni aks ettiradi.

Hasanxoja Nisoriy esa estetik tafakkurda tafsilot va tanqidiy mushohadani uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi. U o'zining "Muzakkiri ahhob" tazkirasida shoirlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tasniflash, qiyoslash va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadi. Uning asarida shoir obrazini yaratishda tafsilot, tahliliy tafakkur va badiiy ifodaning o'zaro uyg'unligi namoyon bo'ladi. Bu esa poetik tafakkurda chuqur psixologik yondashuvlarning shakllana boshlaganidan dalolat beradi.

Nisoriy shoirlarning faqat ijodiy mahsuliga emas, balki ularning ichki dunyosiga ham e'tibor qaratadi. Shu orqali poetik tafakkurning murakkabligi va teranligini ochib beradi. U she'riyatni tahlil qilish jarayonida shoirlarning estetik qarashlari, ruhiy holati va o'z davriga munosabatini aniqlashga intiladi. Bunday yondashuv adabiy-poetik tafakkurda psixologik tahlilning mavqeyini yanada mustahkamlaydi.

Nisoriy ijodkorlarga nisbatan tanqidiy yondashuvi bilan ham yangi poetik mezonlarning shakllanishiga hissa qo'shadi. U faqat maqto'v bilan cheklanib qolmay, shoirlarning uslubiy va ijodiy kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tadi. Bu esa tazkiranavislikda tanqidiy tafakkurning rivojlanganidan dalolat beradi. Mutribiy va Nisoriy tazkiralarda poetik yangilanishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini kuzatish mumkin: Mazkur xususiyatlar XVI asr tazkiranavisligida poetik tafakkurning yangilanganini ko'rsatadi. Ushbu janrda poetik tafakkur faqat she'r mazmuni orqali emas, balki shoir portreti va uning adabiy muhiti vositasida ham ifodalanadi.

Mutribiy va Nisoriy tazkiralarda ijtimoiy hamda estetik tafakkurning uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shoirlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan shaxslar sifatida tasvirlanadi va adabiyotdan ijtimoiy masalalarga munosabat bildirish vositasi sifatida foydalanadilar. Bu esa poetik tafakkurning nafaqat estetik, balki ijtimoiy jihatdan ham boyiganini ko'rsatadi.

Xulosa qilganda, Mutribiy Samarqandiy va Hasanxoja Nisoriy tazkiralari XVI asr o'zbek adabiyotida badiiy-poetik tafakkurning yangilanish jarayonlarini namoyon etuvchi muhim tarixiy-adabiy yodgorliklardir. Ularning asarlari nafaqat o'z davri shoirlarining ijodini aks ettiradi, balki adabiyotning estetik, ijtimoiy va ma'naviy qiyofasi shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hasanxoja Nisoriy esa "Muzakkiri ahbob" asarida tafsilot, tahlil va badiiy ifodani shoir portretini yaratish jarayonida uyg'unlashtirib, psixologik yondashuvlarning rivojlanishini namoyon etdi. Uning qarashlari shoirning ichki dunyosi, estetik qarashlari va o'z davri bilan munosabatini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

Mutribiy va Nisoriy tazkiralardagi poetik tafakkur yangilanishi bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: shoir obrazining kompleks tasviri, tanqidiy tahlil, estetik mezonlarning aniqlashuvi, psixologik unsurlarning kuchayishi hamda shoirlarning ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi faol ishtiroki. Bu xususiyatlar XVI asr adabiyotida yangi estetik yo'nalishlarning shakllanganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I.Beknov: Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasi. Tashkent: Mumtoz so'z, 2013.
2. I.Bekchanov: Nisoriy, "Tazkirat ush-shuaro" Tashkent: Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasi, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1993
3. Jalilov, K. "O'zbekiston adabiyoti tarixida tazkira janri". Tashkent: Fan, 2003.
4. Shamsiyev, R. 16-asr o'zbek adabiyoti va tazkirachilik. Tashkent: O'zbekistan, 2007.
5. Abdurahmonov, A. O'zbek tazkiranavisligi va Mutribiy Samarqandiy. Tashkent: Science, 2011.
6. Xalilov, M. Adabiyotshunoslik asoslari. Tashkent: O'zbekiston, 2008.
7. Toshpulatov, B. O'zbek adabiyoti va tarixiy manbalar. Tashkent: Fan va texnologiya, 2012.
8. Murodov, S. Nisoriy va Mutribiy asarlarining tahlili. Tashkent: Ilm-fan, 2010.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.